Bodiya - Xorazm kulolchiligida eng keng tarqalgan buyum hisoblanadi. Turli tadqiqotchilar bodiye shaklida ham ishlatganlar, biz ko'p qo'llanilgani bois bodiya deb ishlatdik. Bodiylar hajm jihatidan 3 xil: katta, o'rta va kichik hajmda ishlanadi. Kattasi ulli bodiya, o'rtachasi bodiya, kichigi chanoq bodiya deb yuritiladi. Bodiylar o'ziga xos shaklda bo'lib, yoyiq idish (tovoq, lagan) va chuqur idish (chanoq, kosa)ni o'zida mujassamlashtirgan. Ulli bodiylar hajmi pastki qismi diametri 13-18 sm, yuqori qismi 35-42 sm va chuqurligi 15-18 sm bo'ladi. O'rta bodiylar hajmi pastki qismi diametri 10-12 sm, yuqori qismi 28-34 sm va chuqurligi 10-14 sm bo'ladi. Chanoq bodiylar bola chanoq (ya'ni, bolalar idishi) deb ham yuritiladi, hajmi pastki qismi diametri 8 sm, yuqori qismi 22-26 sm va chuqurligi 8-10 sm bo'ladi.

Chanoq (kosa) - qadimiy va keng tarqalgan kulolchilik buyumlaridan biri. Chanoqlar chuqur idish bo'lib, suyuq ovqatlar uchun mo'ljallangan. Chanoqlar hajmi diametri 18-26 sm, chuqurligi 12-15 sm bo'ladi.

Tavoq (lagan, tavox, tabaq) - yoyiq idish. Tavoqlar ham hajmiga ko'ra katta, o'rta va kichik tavoqlarga bo'linadi. Badiiy bezatilishiga ko'ra bodiyaning keyin ikkinchi o'rinda turadi. Tavoq yoyiq bo'lgani uchun keng zaminga naqsh tushirish uchun usta ijodiy erkinlikka ega bo'lgan. Katta tavoqlar chintavoq deb ham yuritiladi (Chin bu yerda Xitoy idishi degan ma'noda).

Piyolalar - turli hajmda bo'lgan, asosan choy ichishga mo'ljallangan idishlardir.

Ibriq (ko'za) - suv, moy va boshqa suyuqliklar solishga mo'ljallangan idish bo'lib, hajmi turlicha bo'lgan.

Shakasha - sut va sut mahsulotlari solish uchun ishlatilgan idish.

Gupi (kuv) - qatiqni moyini ajratib olish uchun ishlatiladigan idish. Bo'yi taxminan 80-100 sm, diametri 40-60 sm, ichi sirlangan.

Siyohdon (dovot) - kichik hajmli, asosan doira shaklli yozuv jihozi.

Toshchiroq - uzunchoq shaklda bo'lib, moy solib qo'yilgan, bir chetida pilik yonib yorug'lik taratgan, uy ro'zg'or buyumi.

Digir - charxpalakning ko‘zasi bo‘lib, orqa tomoni bog‘lashga qulay bo‘lishi uchun to‘mtiq (musht shaklida) qilib ishlangan.

Tarnov - sopolan ishlangan quvurlar “Ichon qal’a” o‘ziga xos kanalizatsiya tizimiga ega bo‘lgan. Masjid, madrasa, xonadonlar va inshootlarda adan (tashnov, rakovina) mavjud. Adanlardan chiqqan chiqindi suvlar, shuningdek yomg‘ir suvlari tarnovlar orqali shahar tashqarisiga chiqarib yuborilgan. Bu esa binolarga zah yetkazmaslikni ta‘minlagan.

K.Rahimov o‘z tadqiqotida idishlarning hududlarda qanday nomlanishini keltirgan. Unga ko‘ra 40-50 sm - koshin bodiya, 35-42 sm - bodiya, 30-38 sm - chanoq bodiya, 25-30 sm - to‘y tavoh yo podshohi, 20-8 sm - podshohi deb nomlangan [6, 13.]. Suyuqliklar uchun 8-13 sm - mashadi bodiya, o‘rta hajmda - bola chanoq, kichik hajmda suv uchun - go‘zacha, dastali suv uchun - go‘za, suv saqlash uchun dastali va tumshuqli - ibriq deb keltirgan [6, 14-15.].

Kulolchilikda sog‘, qora, ko‘kimtir, qizil loykor tuproqlar ishlatiladi. Loyning ham bir qancha turlari bo‘ladi: loyi guldon (sershira loy) – elastik xususiyatga ega bo‘ladi (cho‘ziluvchan, egiluvchan); chinni loy (oq loy) – yarim fayans bo‘lib, qoramtir loy va ishqor qo‘shilib tayyorlanadi; koshin loy - loyga karvak qumi qo‘shilib har xil koshinlar tayyorlanadi; tandir yasash uchun pat loy – bu loy sog‘ tuproqqa qamishning qazg‘og‘ini aralashtirib tayyorlanadi [3].

Xorazm kulolchiligi IX-XII asrlar Ko‘hna Urganch kulolchiligi asosida taraqqiy etgan degan xulosaga kelish mumkin [8]. Bu an‘analar mo‘g‘ullar bosqini va o‘zaro kurashlar natijasida bir muddat turg‘unlikka yuz tutgan bo‘lsa da, XVII asrdan qayta tiklana boshlagan. Xorazm kulolchiligida asosan moviy, oq (lojuvard) va yashil ranglar keng qo‘llanilgan. Kulolchilikda davrlar o‘tishi bilan to‘q moviy va to‘q yashildan och moviy va och yashil rangga o‘tilganini kuzatish mumkin (balki bu ishqorni tejash maqsadida amalga oshirilgandir?).

Xorazm kulolchiligini badiiy jihatdan ikki guruhga ajratish mumkin: 1) sirlangan buyumlar; 2) sirlanmagan buyumlar. Birinchi guruhga bodiya, tavoq, piyola, chanoq, chintavoq, siyohdon kabi buyumlarni kiritish mumkin (qurilish bilan bog‘liq buyumlarga alohida to‘xtalamiz). Ikkinchi guruh buyumlariga ibriq, shakasha, ko‘za, xum, xumcha, toshchiroq, digir, tandir kabilarni kiritish mumkin. Tandirchilik alohida soha bo‘lib, oddiy hunarmandchilik sohasi hisoblanadi. Sirlash o‘ziga xos texnologiyaga ega bo‘lib, xorazmlik kulollar chag‘on va qora o‘roq o‘simliklari kulidan tayyorlangan ishqorni tayyor buyum yuzasiga surganlar. Ikkinchi guruh buyumlariga shunchaki angob berilgan. Lekin ayrim buyumlarga bezak berilmasada, ayrimlariga ham (masalan gupining ichki qismiga, toshchiroq sirtiga) sir berilgan.

Xorazm kulolchiligi o‘z yasash usuli, koloriti, bezalishi, sifati bilan boshqa hududlardan farq qiladi. Xorazm sopol buyumlarini ko‘rgan kishi zavqlanmasdan qolmaydi. Xorazm kulolchiligida asosan islamiy naqshlar va yozuvlardan keng foydalanilgan [9]. Xorazm kulolchiligida islom e‘tiqodiga ko‘ra arablar bosqinidan keyin o‘simliksimon naqshlar asosiy o‘rin tutgan. Shu bilan birgalikda ular arab yozuvlarini o‘rganishdi. Hozirgi davrda girihlarning keng qo‘llanilishi XX asrda yodgorliklarni, jumladan Toshhovlini ta‘mirlash bilan bog‘liq bo‘lib, qurilishdagi girihlar maishiy buyumlarga ko‘chgan va kulolchilikda asosan girih naqshlar ishlatila boshlangan. Biz buni muzey eksponatlaridan ham ko‘rishimiz mumkin. Bodiyalarga naqsh ishlanganda zamin uch qismga ajratiladi: markaz, hoshiya va oraliq joy. Markaz, ya‘ni idishning tubiga biror tasvir tushiriladi: barg, novda va boshqalar. “Xiva bezaklari qarg‘atish, yaproqgul, ko‘k daraxt, shoxchagul, miltiq pichoq, egri naqsh, mehrobi, yulduzgul, koshingul, tanga, ilonboshi, taroqgul, o‘ranaqsh, paxta islimi va boshqalardan iborat” [2, 103].

Badiiy bezalishiga ko‘ra, Xorazm kulolchiligi buyumlarini 4 ta guruhga ajratish mumkin: 1) o‘simliksimon naqshlar: to‘rtiroq gul, bodom guli, zaytun guli, yaproqgul, shoxchagul,

to'rtiyaprog, o'smagul, olmagul; 2) geometrik naqshlar: o'ranaqsh, ilonizi, bigiz naqsh, ilmoq, taroq, uchburchak, to'rtburchak, aylana; 3) ramziy naqshlar: pichoq, dutor, miltiq, qush tumshug'i, baliq, ilon; 4) aralash naqshlar: o'simlik yoki girehiy naqshlar ko'p hollarda ramziy naqshlar bilan yoki o'zaro uyg'unlikda tasvirlangan.

San'atshunos S.Alieva "Xorazmda tayyorlangan kulolchilik mahsulotlarida qadimiy Xorazm klassik kulolchiligiga xos mahobatlilik mavjud" deb ta'kidlaydi [1, 76-b.]. Haqiqatdan ham buyumlar o'ziga xos joziba, ko'rkamlilik va uyg'unlikka ega. Konsentrik ravishda ishlangan kompozitsiyalar ko'p uchraydi. Bodiyaning o'rtasiga doira yoki rozetka tasviri tushiriladi, atrofi esa konsentrik ko'p qavatli parallel hoshiyalar bilan gir aylantirib olinadi. Muayyan tasvir obrazlar miltiq, dutor, pichoqlar hoshiya qavatlarining ichiga naqshsimon qilib chiziladi. Kompozitsiyaning boshqa bir turi sektorli ravishda ishlanadi, ya'ni bodiyaning qoq o'rtasiga doira shakldagi bezak tushiriladi, atrofi 4, 6 yoki 8 qism(sektor)larga bo'linib, har bir sektorga ornamental yo'sinlar joylashtiriladi: gul, yaproqlar, nuqtalar va h. [1, 77-b.]

Geometrik arabeska (gireh) kompozitsiyasi uzluksiz taqsim (rapoport)lardan tashkil topadi. Ko'pincha an'anaviy yulduzlar hosil qiliuvchi girihlar ishlatilib, orasiga spiralsimon islmiy naqsh ishlatiladi. Agar besh qirrali yulduzdan tashkil topgan bo'lsa besh qirrali kompozitsiya deb ataladi. Kattabog' laganning o'rtasiga katta to'rt bargli (to'rtiroq) tasviri tushiriladi [1, 77-b.].

XULOSALAR VA TAKLIFLAR

Yangidan qurilgan Yangiariq kulolchilik markazi Kattabog' markazi kulolchilik an'analarini davom ettirib kelmoqda. Markazda bodiya, piyola, kosa, ko'za kabi idishlar bilan birga koshin tayyorlash yo'lga qo'yilgan. Markazda Bahodir Otajonov, Yashin Otajonov, Odilbek Rahimov, Otabek Rahimovlar muvaffaqiyatli faoliyat yuritib kelmoqdalar [4].

Markaz faoliyatini yanada kengaytirish, Kattabog' qishlog'i aholisini ko'proq ish bilan ta'minlash maqsadida Markaz faoliyatni kengroq targ'ib qilish, qishloqda sayyohlik infratuzilmalarini (mehmonxona, choyxona, kafe, do'kon, hojatxona va boshqalar) yaratish, Markazni sayyohlik yo'nalishiga kiritish zarur.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. Aliyeva S.Sh. 1970-90-yillarda O'zbekiston xalq kulolchiligi (An'analarning saqlanish va rivojlanish muammolari). – T., 1996. San.f.n. dissertatsiyasi. 138-b.
2. Atlas of Central Asian Artistic crafts and trades. Volume I. Uzbekistan. — T., 1999. – page 98.
3. Bobojonov D., Abdullayev M. Xorazm amaliy san'ati ustalari. – Xiva: Xorazm Ma'mun akademiyasi, 2010. 100-b.
4. Kulol B.Otajonov bilan suhbat.
5. Kulol O.Rahimov bilan suhbat. Kulol O.Rahimov muzeyi materiallari.
6. Raximov M.K. Xudojestvennaya keramiki Uzbeksitana. T., 1961. S. 13.
7. O'zbekiston amaliy san'ati muzeyi (o'zbekcha, ruscha). – T.: "O'zbekiston", 1970. 19-b.
8. San'atshunos O.Sultonov bilan suhbat.
9. San'atshunos O.Sultonov muzeyi materiallari.
10. Sultonov O. Zangori kulollik // O'zbekiston san'ati jurn. 1985-yil № 10. 11-b.
11. Xakimov A. O'zbekiston san'ati tarixi. Qadimgi davr, o'rta asrlar, hozirgi zamon. – T.: Zilol-buloq, 2022. 528-b.
12. Xiva "Ichon qal'a" muzey qo'riqxonasi fondi materiallari.

13.00.00 – Pedagogika fanlari

13.00.00 – Pedagogical sciences

13.00.00 – Педагогические науки

PANDEMIYA DAVRIDA MOBIL SOG'LIQNI SAQLASH VA FITNES DASTURLARI (PROGRAM)

Azamat Orunbayev

Buxoro davlat universiteti erkin tadqiqotchisi

Elektron pochta: azamatorunbayev@gmail.com

<https://doi.org/10.5281/zenodo.8190423>

Annotatsiya: Ushbu tadqiqotda koronavirus pandemiyasi paytida ishlatilgan mobil sog'liqni saqlash va fitnes dasturlari qanday maqsadlarda xizmat qilganligi o'rganildi. Hozirgi vaqtda barcha mamlakatlar 2019 yil dekabr oyida Xitoy Xalq Respublikasida tanaga, ayniqsa o'pka kasalliklariga jiddiy zarar yetkazgan yangi koronavirus (Covid-2019) epidemiyasi bilan kurashmoqda. 2020 yil boshidan beri pandemiya butun dunyoda o'zini tutishning yangi usullari va turli xil yashash sharoitlarini ochib berdi. Pandemiya boshlanganidan beri turli sohalarda bo'lgani kabi, sport tashkilotlari ham qoldirildi yoki bekor qilindi. Ushbu davrdagi pandemiyaning eng muhim ta'sirlaridan biri shundaki, u ko'plab ijtimoiy va iqtisodiy sohalarda bo'lgani kabi sport maydonini (programmallashtirishga, raqamlashtirishga) majbur qildi.

Kalit so'zlar: covid-19, sport, mobil sog'liqni saqlash dasturlari, tashkilot, mobil yechimlar, karantin, fitnes, pandemiya.

MOBILE HEALTH AND FITNESS APPS DURING THE PANDEMIC (PROGRAM)

Abstract: This study examined how mobile health and fitness apps performed during the coronavirus pandemic. Currently, all countries are fighting the epidemic of the novel coronavirus (Covid-2019), which in December 2019 in the People's Republic of China caused serious damage to the body, especially lung diseases. Since the beginning of 2020, the pandemic has revealed new behaviors and different living conditions around the world. As has been the case in various areas since the beginning of the pandemic, sporting events have been postponed or cancelled. One of the most important consequences of the pandemic during this period is that it forced (programming, digitalization) into sports, as well as many social and economic fields.

Keywords: covid-19, sports, mobile medical applications, organization, mobile solutions, quarantine, fitness, pandemic.

МОБИЛЬНЫЕ ПРИЛОЖЕНИЯ ДЛЯ ЗДОРОВЬЯ И ФИТНЕСА ВО ВРЕМЯ ПАНДЕМИИ (ПРОГРАММА)

Аннотация: В этом исследовании изучалось, как мобильные приложения для здоровья и фитнеса работали во время пандемии коронавируса. В настоящее время все страны борются с эпидемией нового коронавируса (Covid-2019), который в декабре 2019 года в Китайской Народной Республике нанес серьезный ущерб организму, особенно заболеваниям легких. С начала 2020 года пандемия выявила новые способы поведения и разные условия жизни по всему миру. Как это было в различных сферах с начала пандемии, спортивные мероприятия были отложены или отменены. Одним из наиболее важных последствий пандемии в этот период является то, что она заставила (программирование, цифровизацию) заниматься спортом, как и многими социальными и экономическими сферами.

Ключевые слова: covid-19, спорт, мобильные медицинские приложения, организация, мобильные решения, карантин, фитнес, пандемия.

KIRISH

Tarix davomida ko'plab epidemiyalar mavjud bo'lib, ommaviy o'limga olib kelgan va turli darajalarda sog'liq muammolarini keltirib chiqargan.¹ 2019 yil dekabr oyida Xitoy Xalq Respublikasida yangi koronavirus (Covid-19) epidemiyasi sodir bo'ldi, bu tanaga, ayniqsa, o'pka kasalliklariga jiddiy zarar yetkazdi. Aniqlangan virus juda qisqa vaqt ichida odamdandan odamga osonlikcha yuqadigan va butun dunyoga ta'sir qiladigan pandemiyaga aylandi. Amalga oshirilgan karantin choralaridan so'ng, odamlar o'rtasidagi jismoniy aloqa va ijtimoiy o'zaro munosabatlarning pasayishi va uyda qolish vaqtlarining ko'payishi kabi sabablarga ko'ra ko'plab psixologik, hissiy, iqtisodiy muammolar paydo bo'ldi. Epidemiyaga javoban ko'rilgan asosiy choralaridan ijtimoiy izolyatsiya individual turmush tarzi va odatlarini sezilarli darajada o'zgartirdi.²

2020 yil boshidan beri pandemiya butun dunyoda o'zini tutishning yangi usullari va turli xil yashash sharoitlarini ochib berdi. Pandemiya boshlanganidan beri turli sohalarda bo'lgani kabi, sport tashkilotlari ham qoldirildi yoki bekor qilindi. Ushbu davrda sport olami ilgari ko'rilmagan juda jiddiy inqirozga duch keldi. Bir-biridan farqli darajadagi turnirlarni bekor qilish, qoldirilgan musobaqalar va kelajakda juda qat'iy qoidalar bilan tashkil etishga harakat qilayotgan tashkilotlarda karantindagi sportchilarning holati kabi ko'plab muammolar sport olamiga chuqur ta'sir ko'rsatdi. Koronavirus pandemiyasi boshlanishi bilan majburiy chora-tadbirlar bilan birga sport dunyosida bir qancha sport tashkiloti (olimpiadalar, jahon va qit'a chempionatlari va boshqalar), mashhur sport ligalari (NBA, Chempionlar Ligasi, Formula 1), xalqaro musobaqalar, mahalliy va havaskor ligalar va festivallar bekor qilindi.³

Koronavirus epidemiyasi bilan vaqtdan unumli foydalanish va tana immunitetini yaxshilash, shuningdek, hayotimizning o'zgarish qismiga aylangan karantin va izolyatsiya kabi choralar to'g'risida sezilarli darajada xabardorlik yaratildi. Uzoq vaqt davomida gavjum joylarda sport bilan shug'ullanish mumkin emasligi va tashqi vaqtni qisqartirish kabi ko'plab chora-tadbirlar tufayli sport sektori yangi ijodiy echimlarni ishlab chiqara boshladi. Ushbu davrdagi pandemiyaning eng muhim ta'sirlaridan biri shundaki, u ko'plab ijtimoiy va iqtisodiy sohalarda bo'lgani kabi sport sohasini ham raqamlashtirishga majbur qiladi.⁴

Tadqiqotning maqsadi salomatlik va fitnes sarlavhasi ostida mobil ilovalar do'konlarida pandemiya davriga ko'ra yana yangilash orqali foydalanishga topshirilgan fitnes-sport-salomatlik uchburchagida tayyorlangan mobil ilovalarni o'rganishdir.

Mobil sog'liqni saqlash dasturlarining tarixiy rivojlanishi

1920-yillarda "Radio yangiliklari jurnali" da chop etilgan maqolada shifokor o'z bemorini radio orqali qanday tekshirishi mumkinligi haqida avval sog'liqni saqlash sohasida masofadan tekshirish yoki nazorat qilish kabi variantlar olinishi haqida eslatib o'tilgan edi.⁵ Davomida fazoda

¹ Aslan, R. (2020). Tarihten Günümüze Epidemiler, Pandemiler ve Covid-19. Göller Bölgesi Ekonomi ve Kültür Dergisi, 8, 35- 41.

² MCCREARY, DR, SASSE, DK (2000). An exploration of the drive for muscularity in adolescent boys and girls. Journal of American College Health, 48, 297– 304.

³ Devecioğlu, S. (2020). Covid-19 Salgını Sürecinde Türk Spor Sektörü Destek Fonu. Erişim adresi Ekospor.com: <http://www.ekospor.com/covid-19-salgini-surecindeturk-spor-sektoru-destek-fonu/>

⁴ Türkmen, M., & Özseri, A. (2020). Covid-19 Salgını ve Spor Sektörüne Etkileri. International Journal of Sport Culture and Science, 8(2), 55-67.

⁵ DANIEL, S, BRIDGES, SK (2010). The drive for muscularity in men: Media influences and objectification theory. Body Image 7, ss. 32–38. doi: 10.1016/j.bodyim.2009.08.003.

astronavtlarning salomatlik holatini kuzatish maqsadida sog'liqni saqlash sohasida qo'llaniladigan dastlabki dasturlar amalga oshirildi. Jismoniy mashqlar paytida odamlarning ishlashi to'g'risida ma'lumot olishga yordam beradigan birinchi ko'chma tibbiy asbob-bu 1975 yilda Gregori Lektman tomonidan ishlab chiqarilgan simsiz yurak urish tezligini o'lchash mashinasi.⁶ Ushbu qurilma ishlab chiqarilishi bilan yurish, yugurish, velosiped haydash kabi faoliyat bilan shug'ullanadigan odamlarning jismoniy ko'rsatkichlari haqida ko'proq ma'lumot olindi. Kelajakda ko'plab kompaniyalar tomonidan ishlab chiqarilgan yurak urish tezligini o'lchash moslamalari bilan birgalikda ishlatiladigan texnologiya kichikroq, qulayroq va arzonroq bo'ldi. 2000-yillardan keyin aqlli mobil telefonlar keng tarqaldi va ushbu qurilmalar uchun ishlab chiqilgan sog'liqni saqlash dasturlari bilan odamlarning o'z sog'lig'i haqida xabardorligi oshdi va ular bu muammolar haqida ko'proq xabardor bo'lib, shifokorlar va sog'liqni saqlash muassasalari bilan yaqinroq bo'lishlariga yo'l ochdi. Yaratilgan mobil ilovalar bilan bemorlarning tibbiy ma'lumotlari vaqt va masofaga bog'liq bo'lmagan holda kuzatila boshlandi.

Doimiy rivojlanayotgan axborot texnologiyalari, operatsion tizimlari, rivojlangan odamlar, internetga ulanish va GPS xususiyatlariga ega aqlli telefonlar tufayli, o'z ishlarini osonroq va tezroq olib borish imkoniyatiga ega bo'lishdan tashqari, sog'liq holati va telefonlarning apparat xususiyatlari orqali jismoniy faollik ma'lumotlarini ham osongina kuzatib borishlari mumkin.⁷ Mobil qurilmalarning hayotimizdagi o'rni kundan-kunga ortib bormoqda va shunga ko'ra, odamlar o'zlarining shaxsiy faoliyati va sog'liqni saqlash ma'lumotlarini osongina kuzatishi va qayd etishi mumkin bo'lgan mobil ilovalar doimiy ravishda yangi dasturiy ta'minot bilan yangilanadi. Hozirgi vaqtda deyarli barcha kattalar aqlli mobil telefondan foydalanadilar va odatda telefonlariga kiritilgan sog'liqni saqlash dasturlarida pedometr dasturlari mavjud.

Mobil sog'liqni saqlash va sport dasturlaridan foydalanish sohalari mobil ilovalarga misollar

Sog'liqni saqlash savodxonligining rivojlanishi bilan mobil sog'liqni saqlash va sport dasturlari odamlar hayotining bir qismiga aylandi. Sog'lom turmush tarzi uchun ishlatiladigan mobil ilovalar odatda ovqatlanishni kuzatish, vazn yo'qotish, jismoniy faollikni kuzatish, turmush tarzini o'zgartirish va surunkali kasalliklarni boshqarish kabi maqsadlarda qo'llaniladi. Sog'lom ovqatlanish orqali sog'lom turmush tarzini targ'ib qilish va kasalliklarning oldini olish jamoalar uchun katta ahamiyatga ega, globallashuv va jamiyatning barcha a'zolari bilan birgalikda kerakli sifatli ovqatlanishga erishish uchun sog'lom ovqatlanish to'g'risida xabardorlikni oshirish orqali turmush tarziga aylantirilishi kerak. Bu sog'liqni saqlash xarajatlarini kamaytirish orqali jismoniy shaxslar sog'lom va sog'lom hayot kechiradigan jamiyatlar nuqtai nazaridan iqtisodiy yo'qotishlarning oldini olishga yordam beradi deb o'ylashadi.

HIS Mobil ilovaning xususiyatlari:

- Barcha darajalarga mos keladigan jismoniy faollik videolari.
- Uyda va stolda mashq qilish videolari
- Pedometer Yoga mazmuni
- Jismoniy mashqlar, ovqatlanish va suv eslatmalari
- Kundalik kaloriyaga bo'lgan ehtiyojni qondirish

⁶ Kopmaz, B., & Arslanoğlu, A. (2018). Mobil Sağlık ve Akıllı Sağlık Uygulamaları. Sağlık Akademisyenleri Dergisi, 251-255.

⁷ Güner, P. D., Bölükbaşı, H., Kocaçaya, S. H., Yengil, E., & Özer, C. (2018). Mustafa Kemal Üniversitesi Öğrencilerinin Mobil Sağlık Uygulamalarını Kullanımı. Konuralp Tıp Dergisi, 10(3), 264-268.

- Harakat hisobi kalkulyatsiyasi
- Nogironlar uchun
- Bosib o'tilgan masofa bilan belgilanadigan muntazam sport punktlari ro'yxati.

Keep Fit mobil ilovasining xususiyatlari:

- Tana holati o'lchovi
- Ideal vazn o'lchash
- Tana massasi indeksi
- Pedometr bilan M7 protsessorini ko'rsatish
- Oqsilga bo'lgan ehtiyojni tushuntirish.
- Kaloriya jadvali
- Kaloriya yo'qotish jadali
- Ozish tavsiyalari
- Bazal metabolizm tezligi
- Kundalik kaloriyaga bo'lgan ehtiyoj

SWEATERS Mobil ilovasining xususiyatlari:

- Xoxlagan sport sohasiga tegishli bo'lgan tadbirlarda ishtirok etish yoki tashkil etish
- Virtual tashkil etilgan poyga (musoboqa)larda ishtirok etish
- Leaderboard orqali boshqa foydalanuvchilar bilan baholar va ballarni taqqoslash
- Yugurib kelayotgan guruhlar va jamoa tadbirlarini kuzatib borish;
- Mashg'ulotlarda vaqt, masofa va sur'atni bir zumda kuzatib borish imkoniyati
- Faoliyatni kuzatish xususiyati yordamida siz xaritada yugurish yoki velosiped

haydashni kuzatishingiz va uning rivojlanishini statistika yordamida kuzatishingiz mumkin.

Rooners Mobil ilovasining xususiyatlari:

- Jahonning istalgan joyida yugurish yoki yurish orqali o'yinlarda ishtirok etish va global peshqadamlik (Leaderboard)dan joy olish
- Har xil o'yin mexanikasiga ega bo'lgan turli odamlar yoki muassasalar tomonidan yaratilgan o'yinlarda ishtirok etish.
- Har oyda va har yili barcha faoliyat ma'lumotlarini ko'rib chiqish
- Tegishli sport bo'limidan chaqiruv masofasi tugagach, vaqt avtomatik ravishda to'xtashi va natijalar ijtimoiy media yoki boshqa platformalar orqali ulashish xususiyati
- Jonli kuzatuv xaritasi va joylashuvni almashish, shuningdek kerakli odamlar kuzatadigan marshrutlarni darhol kuzatib borish.

Zwift Mobil ilovasining xususiyatlari:

- Yopiq muhitda murabbiy orqali virtual velosiped haydash yoki yugurish yo'lagi orqali yugurish mashqlari
- Bir paytning o'zida, haydash yoki yugurish paytida tezlik, masofa, kadans va h.k. ko'p ma'lumotlarni kuzatish va yozib olish xususiyati
- Shahar, yer, o'rmon kabi turli xil simulyatsiya mazmuni tufayli turli xil muhitda virtual yugurish va velosiped tadbirlarini olib borish
- Turli darajalarga mos ravishda tayyorlangan o'quv rejalarini, yangilangan jonli poygalar

- Masofa, ishtirokchilar soni, daraja kabi turli xil xususiyatlarga ko'ra odamlar yoki muassasalar tomonidan tashkil etilishi mumkin bo'lgan Virtual mashg'ulotlar yoki poyga tashkilotlari.

Mobil sog'liqni saqlash va sport dasturlarining afzalliklari

- Muntazam ravishda o'lchangan ma'lumotlar bilan motivatsiyani oshirish orqali shaxslarni jismoniy faoliyat bilan shug'ullanishga rag'batlantirishi;
- Jismoniy shaxslarning kg, yurish masofasi, kaloriya va boshqa ma'lumotlarni yozib olish, foydalanuvchilar tomonidan ma'lumotlarni kuzatib borish va ushbu yo'nalishda rivojlanishni kuzatish uchun imtiyozlar berish;
- Mobil ilovalar orqali o'z sog'lig'ini nazorat qiluvchi shaxslar tomonidan sog'liqni saqlash savodxonligini rivojlantirishga hissa qo'shish;
- Mashqlarda aniqlangan ma'lumotlar orqali muntazam mashqlarni tavsiya qilish orqali uni turmush tarzini o'zgartirishga undash;
- Sog'liqni saqlash bo'yicha bilim darajasini oshirish orqali o'ziga bo'lgan ishonchni oshirish;
- O'z uyini yoki joyini tark eta olmaydigan nogironlarning sport tadbirlariga mobil ilovada mashq mashg'ulotlari bilan hech qanday uskunaga ehtiyoj sezmasdan hissa qo'shishi;
- Istalgan vaqtda kaloriya jadvali, kaloriyalarni yo'qotish (ozish) jadvali, tana massasi indeksi va metabolizm darajasi kabi ma'lumotlarga kirish va shunga mos ravishda muvozanatli va yetarli ovqatlanishga ta'siri mavjud.

Mobil sog'liqni saqlash va sport dasturlarining kamchiliklari

- Xavfsizlik va maxfiylik kabi muammolarning maxfiyligi masalasini muhokama qilish mobil ilovalar foydalanish paytida sezgir va shaxsiy ma'lumotlarga ega bo'lishi sababli
- Mobil ilovalar foydalanish paytida nozik va shaxsiy ma'lumotlarga kirish natijasida, xavfsizlik va maxfiylik kabi masalalarning maxfiyligini muhokama qilish
- Texnologiya savodxonligining yetishmasligi va mobil ilovalarni samarali yuklab olish va ulardan foydalana olmaslik
- Shifokor yordamisiz mobil ilovalar orqali parhez yoki jismoniy mashqlar dasturlarini bajarish orqali jismoniy yoki surunkali kasalliklarga chalingan odamlar uchun ba'zi salbiy oqibatlarni boshdan kechirish
- Mobil ilovalar orqali fitnes o'lchovlarini amalga oshirish natijasida sog'liqni saqlash sohasidagi boshqa tashkilotlar bilan shaxslarning turmush tarzi haqida muhim ma'lumotlarni bo'lishish.⁸

Xulosa

Koronavirus epidemiyasi bilan bir qatorda jismoniy, ijtimoiy, iqtisodiy kabi turli xil sharoitlarda keng doiradagi odamlarga ta'lim olish imkoniyatlarini ta'minlash uchun masofaviy ta'lim bilan bir qatorda turli xil vositalarga e'tibor qaratildi.⁹ Sport inshootlari yopiq yoki cheklangan miqdordagi odamlar doirasidagi epidemiya choralari ushbu yo'nalishda cheklangan vaqt komendantlik soatiga xizmat ko'rsatishga qodir va ular sport bilan shug'ullanadigan davrni

⁸ Altindiş, S., & Kıran Morkoç, İ. (2018). Sağlık Hizmetlerinde Büyük Veri. Ömer Halisdemir Üniversitesi İktisadi ve İdari Bilimler Fakültesi Dergisi, 11(2), 257-271

⁹ Balaman, F., & Handan Tiryaki, S. (2021). Corona Virüs Nedeniyle Mecburi Yürütülen Uzaktan Eğitim Hakkında Öğretmen Görüşleri. İnsan ve Toplum Bilimleri Araştırmaları Dergisi, 10(1), 52-84.

o'z ichiga oladi. Koronavirus pandemiyasi davrida odamlar o'zlarini jismoniy jihatdan yaxshilash va sport va sog'liqni saqlash mobil dasturlari tufayli turli darajalarda tashkil etilgan sport tashkilotlarida ishtirok etish imkoniyatiga ega bo'ldilar. Doimiy rivojlanayotgan axborot texnologiyalari shuni ko'rsatadiki, ko'chma salomatlik va sport tushunchasi kelgusi davrda salomatlik va sport nuqtai nazaridan hayotimizda yanada kengroq qo'llaniladi. Koronavirus epidemiyasi sabab bo'lgan pandemiya muhitida odamlar tomonidan yangi yashash sharoitlariga ko'ra turli xil xatti-harakatlar paydo bo'ldi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. Aslan, R. (2020). Tarihten Günüme Epidemiler, Pandemiler ve Covid-19. Göller Bölgesi Ekonomi ve Kültür Dergisi, 8, 35- 41.
2. MCCREARY, DR, SASSE, DK (2000). An exploration of the drive for muscularity in adolescent boys and girls. Journal of American College Health, 48, 297– 304.
3. Devecioğlu, S. (2020). Covid-19 Salgını Sürecinde Türk Spor Sektörü Destek Fonu. Erişim adresi Ekospor.com: <http://www.ekospor.com/covid-19-salgini-surecindeturk-spor-sektoru-destek-fonu/>
4. Türkmen, M., & Özсарı, A. (2020). Covid-19 Salgını ve Spor Sektörüne Etkileri. International Journal of Sport Culture and Science, 8(2), 55-67.
5. DANIEL, S, BRIDGES, SK (2010). The drive for muscularity in men : Media influences and objectification theory. Body Image 7, ss. 32–38. doi: 10.1016/j.bodyim.2009.08.003.
6. Kopmaz, B., & Arslanoğlu, A. (2018). Mobil Sağlık ve Akıllı Sağlık Uygulamaları. Sağlık Akademisyenleri Dergisi, 251-255.
7. Güner, P. D., Bölükbaşı, H., Kokaçya, S. H., Yengil, E., & Özer, C. (2018). Mustafa Kemal Üniversitesi Öğrencilerinin Mobil Sağlık Uygulamalarını Kullanımı. Konuralp Tıp Dergisi, 10(3), 264-268.
8. Altındış, S., & Kıran Morkoç, İ. (2018). Sağlık Hizmetlerinde Büyük Veri. Ömer Halisdemir Üniversitesi İktisadi ve İdari Bilimler Fakültesi Dergisi, 11(2), 257-271
9. Balaman, F., & Handan Tiryaki, S. (2021). Corona Virüs Nedeniyle Mecburi Yürütülen Uzaktan Eğitim Hakkında Öğretmen Görüşleri. İnsan ve Toplum Bilimleri Araştırmaları Dergisi, 10(1), 52-84.

BOSHLANG'ICH SINFLARDA AYRIM TAQLID SO'Z TURKUMIGA OID SO'ZLAR BILAN ISHLASH

Ergashova Mehriniso Husniddin qizi

Buxoro davlat pedagogika instituti Boshlang'ich ta'lim fakulteti 2-bosqich talabasi

<https://doi.org/10.5281/zenodo.8227574>

Annotatsiya: Ushbu maqolada boshlang'ich sinf o'quvchilariga so'z turkumlarini o'rgatish jarayonida o'rgatiladigan taqlid so'z turkumiga oid ayrim so'zlar ustida ishlash metodikasi bo'yicha fikr va qarashlar o'z ifodasini topgan. Ushbu maqola nazariy tushuncha va tavsiflar berish bilan birgalikda ayrim didaktik o'yinlarning amalda qo'llanish yo'l-yo'riqlarini o'zida aks ettirganligi bilan dolzarbdir.

Kalit so'zlar: dastur, taqlid, vosita, topshiriq, ovoz, usul, mustaqil, atrof-muhit, amaliy ko'rsatmalar.

WORKING WITH WORDS RELATED TO SOME IMITATION VOCABULARY IN ELEMENTARY GRADES

Abstract: In this article, opinions and views on the methodology of working on some words related to the imitation vocabulary taught in the process of teaching vocabulary to elementary school students are expressed. This article is relevant as it reflects the guidelines for the practical use of some didactic games along with providing theoretical concepts and descriptions.

Keywords: program, simulation, tool, task, voice, method, independent, environment, practical instructions.

РАБОТА СО СЛОВАМИ, ОТНОСЯЩИМИСЯ К ИМИТАЦИОННОЙ ЛЕКСИКЕ В МЛАДШИХ КЛАССАХ

Аннотация: В данной статье высказываются мнения и взгляды на методику работы над некоторыми словами, относящимися к имитативной лексике, преподаваемой в процессе обучения лексике учащихся начальной школы. Эта статья актуальна, так как в ней отражены рекомендации по практическому использованию некоторых дидактических игр, а также предоставлены теоретические концепции и описания.

Ключевые слова: программа, имитационное моделирование, инструмент, задача, голос, метод, самостоятельный, среда, практические инструкции.

KIRISH

So'z turkumlarini o'rganish izchil, tizimli va maqsadga yo'naltirilgan jarayon bo'lib, u pedagogdan yuksak mahoratni talab qiladi. Boshlang'ich sinf o'quvchilariga so'z turkumlarini o'rgatish jarayonida tilshunoslikdagi barcha so'z turkumlari qamrab olinmaydi, ammo ba'zi tushuntirish va tushunish jarayoni murakkab bo'lgan so'z turkumlarining (masalan, olmosh yoki bog'lovchi so'z turkumlarining ayrim men, sen, u, chunki, shuning uchun kabi so'zlari) ayrim so'zlari o'rgatiladi. Ushbu ilmiy ish davomida shunday so'z turkumlariga yorqin namunalarni fikr, isbot va dalillar vositasida ko'rib chiqamiz.

Taqlid so'zlar so'z turkumlarining uchinchi guruhi, ya'ni alohida olingan so'z turkumlariga kiradi. Bizga ma'lumki, tilshunoslikda 12 ta so'z turkumi mavjud bo'lib, ular quyidagi guruhlariga ajratiladi:

1. Mustaqil so'z turkumi;
2. Yordamchi so'z turkumi;
3. Alohida olingan yoki oraliqdagi so'zlar.

ASOSIY QISM

Taqlid soʻzlar ushbu yuqoridagi guruhlarning uchinchi turiga mansub hisoblanadi. Taqlid soʻzlar deb, atrofda jonli va jonsiz narsalarning tovushiga va holatiga taqlidni ifodalagan soʻzlarga aytiladi. Ammo ushbu taʼrif boshlangʻich sinf oʻquvchilarining yosh xususiyatlariga va tushunish jarayonlariga nisbatan biroz murakkab boʻlib, ularga quyidagi shaklda tushuncha bergan maʼqul deb oʻylaymiz:

Atrofdagi tovushlarni yozuvda ifodalash uchun ishlatiladigan barcha soʻzlarimiz taqlid soʻzlar deb ataladi. Ushbu taʼrif yuqorida keltirib oʻtilgan taʼrifga nisbatan tushunish sodda hisoblanadi. Oʻqituvchi taqlid soʻzlarni oʻquvchilarga ongli ravishda tushuntirishi uchun oddiy kundalik hayot va ularni oʻrab turgan atrof-muhitdagi jonli va jonsiz predmetlarning ovozlardan foydalanishi ijobiy samara beradi deb oʻylaymiz.

Respublika Taʼlim Markazi tomonidan xorij tajribalari bilan hamohang tarzda ishlab chiqilgan milliy dasturdagi ilmiy dalillar shuni koʻrsatadiki, taqlid soʻzlar haqidagi boshlangʻich tushunchalar oʻquvchilarda ikkinchi sinfdan boshlab shakllana boshlaydi. Shunga qaramasdan, ushbu soʻzlarning barcha xususiyat va mohiyatlariga chuqur toʻxtalib oʻtilmaydi. Masalan, ushbu soʻzlar soʻzlar soʻz turkumining alohida olingan soʻz turkumlari guruhiga kirishi kabi maʼlumotlar oʻquvchiga taqdim etilmaydi. Boshlangʻich sinf oʻquvchilari ikkinchi sinfdan ona tili va oʻqish savodxonligi darsligining oʻninchisi boʻlimi “Bolalar qoʻshiqlari” boʻlimidagi birinchi mavzu vositasida alohida olingan soʻz turkumlarining bir turi bilan tanishadilar. Ushbu boʻlimda berilgan “Joʻjalarim” sheʼri fikrimizning yorqin isbotidir. Bu sheʼrda joʻjalarning tovushlariga taqlid qilingan soʻzlardan foydalanilgan: “chip-chip” soʻzi. Oʻquvchilarning ongidagi ilk tasavvur shu sheʼr orqali shakllana boshlaydi. Boshlangʻich sinf oʻquvchilari “Bolalar qoʻshiqlari” boʻlimi doirasida ham jonli narsalarning tovushiga taqlidini ham jonsiz narsalarning tovushiga taqlidni oʻrganadilar. Ammo holatga taqlid bundan mustasno.

Yuqorida keltirib oʻtilgan maʼlumotlarga parallel ravishda oʻquvchilar takror taqlid soʻzlar ishtirokida feʼlli birikmalar tuzishni oʻrganadilar. Fikrimizga ilmiy dalil sifatida quyidagi birikmalarni keltirib oʻtishimiz mumkin:

1. Vov-vov qilmoq-vovullamoq;
2. Miyov-miyov-miyovlamoq;
3. Vish-vish-vishillamoq.

Darslikning biz yuqorida taʼkidlab oʻtgan mavzuga oid boʻlimidagi sheʼrlar asosida mashqlar ishlanib, oʻquvchilar bilimlari musatahkamlanadi. “Ona chumchuq va bola chumchuq” sheʼridagi “chiriq-chiriq” soʻzi chumchuqning ovozigacha taqlid boʻlib, bolalarga kundalik hayotda ayrofdan eshitilgan chumchuqning ovozi aslida qanday soʻz ekanligi ongli ravishda tushuntiriladi. Boshlangʻich sinf oʻquvchilarida ushbu jarayonga yetib kelgunga qadar ogʻzaki nutqda ishlatilgan yoki atrof-muhitdan eshitilgan borliqdagi jonli va jonsiz narsalarning ovozi haqida bilim, koʻnikma va malakalar shakllana boshlaydi. Bundan tashqari, ogʻzaki nutqda ishlatgan taqlid soʻzlarini yozma nutqda ham aks ettira oladilar.

Ikkinchi sinfdan oʻquvchilar jonli narsalarning ovozigacha taqlidni tashqari jonsiz predmetlarning ovozigacha taqlid soʻzlar haqida ham maʼlumotga ega boʻladilar. Mavzuga oid boʻlimdagi “Arra gʻiz-gʻiz” sheʼri fikrimizning yorqin isbotidir.

Oʻquvchilarning bilimlarini avtomatlashgan koʻnikma va malakaga aylantirishda pedagogga yaqindan yordam beradigan vositalar bu metodlar va didaktik oʻyinlardir. Taqlid soʻzlar haqidagi bilimlarni mustahkamlab olishda rasmlar bilan ishlash usuli yaxshi samara beradi. Masalan, oʻqituvchi atrofda istalgan predmetning rasmini koʻrsatib, uning ovozigacha taqlid

qilishlarini so‘rashi mumkin. Ushbu usul yordamida kichik yoshdagi, endigina o‘yin faoliyatidan yiroqlashgan bolaning darsga bo‘lgan ishtiyoqi oshadi. Va xorij tajribalari asosida ishlab chiqilgan milliy dasturga muvofiq ravishda fanlar integratsiyasi hosil bo‘ladi. Shu o‘rinda bir narsani ta’kidlab joizki, bu jarayonda tabiat qo‘yniga ekskursiya qilish yuqori darajada samara beradi. Chunki yon-atrofdagi jonli va jonli predmetlarni ko‘rib, ularning ovozini tahlil qilgan o‘quvchida ongli ravishda bilim shakllanadi.

XULOSA

Xulosa qilib shuni aytish mumkinki, alohida olingan so‘z turkumlariga kiruvchi taqlid so‘zlarni o‘rganish bosqichida o‘quvchilarning lug‘at boyligi ortadi. Ko‘pincha amaliy ko‘rsatmalarga urg‘u berish shart bo‘lganligi bois bolalarda ishtiyoq o‘sadi, ruhiyat ko‘tariladi. Atrofdan eshitayotgan so‘zlari qanday so‘z turkumi ekanligini bilib oladilar.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:

1. Абдуллаева Қ. А., Биринчи синфда нутқ ўстириш. – Тошкент.: «Ўқитувчи», 1980. – 156 б.
2. Абдуллаева Қ. А., Раҳмонова С. Она тили дарслари (усулий қўл-ланма). – Тошкент.: «Ўқитувчи», 1999. – 146 б.
3. Klaraxon Mavlonova, Shokir Tursun, Iroda Azimova, Sa’dullo Quronov uchinchi sinf ona tili darsligi.
4. Klaraxon Mavlonova, Shokir Tursun, Iroda Azimova, Sa’dullo Quronov
5. Зикриллаев Ғ. Ўзбек тили морфологияси – Бухоро, 1994. – 195 б.
6. Менглиев Б. Тил ва тараққиёт. – “Маърифат” газетаси, 2013 йил 30 октябрь сони, 8 – 9- б.
7. Мирзаев М., Усмонов С., Расулов И. Ўзбек тили. – Тошкент.: «Ўқитувчи», 1966. – 267б.
8. Миртожиев М. Ҳозирги ўзбек тили. – Тошкент.: «Ўқитувчи», 1992. – 168 б.
9. Сайфуллаева Р., Менглиев Б. ва бошқалар. Ҳозирги ўзбек тили. Синтаксис. Ўқув қўлланма. – Тошкент, 2006. – 171 б.
10. Сайфуллаева Р., Менглиев Б. ва бошқалар. Ҳозирги ўзбек тили. Ўқув қўлланма. – Тошкент.: «Университет», 2007. – 405б.
11. Турсунов У., Мухторов Ж., Раҳматуллаев Ш. Ҳозирги ўзбек тили. – Тошкент.: «Ўзбекистон», 1994.
12. Раҳматуллаев Ш., Маматов Н., Шукуров Р. Ўзбек тили антонимларининг изоҳли луғати. – Тошкент.: «Ўқитувчи», 1980. – 232 б.
13. Шоабдурахмонов Ш. ва бошқалар. Ҳозирги ўзбек адабий тили. – Тошкент.: «Ўқитувчи», 1980. – 448 б.
14. Нурмонов А., Исқандарова Ш. Тилшунослик назарияси. – Тошкент.: «Фан», - 176б.
15. Ўзбек тилининг изоҳли луғати. 1-жилд. – Тошкент.: «Ўзбекистон миллий энциклопедияси» Давлат илмий нашриёти, 2006 – 680 б.
16. Ўзбек тилининг изоҳли луғати. 2-жилд. – Тошкент.: «Ўзбекистон миллий энциклопедияси» Давлат илмий нашриёти, 2006 – 672 б.
17. Ўзбек тилининг изоҳли луғати. 3-жилд. – Тошкент.: «Ўзбекистон миллий энциклопедияси» Давлат илмий нашриёти, 2006 – 688 б.
18. Ўзбек тилининг изоҳли луғати. 4-жилд. – Тошкент.: «Ўзбекистон миллий энциклопедияси» Давлат илмий нашриёти, 2008 – 608 б.

19. Ўзбек тилининг изоҳли луғати. 5-жилд. – Тошкент.: «Ўзбекистон миллий энциклопедияси» Давлат илмий нашриёти, 2008 – 592 б.
20. Ғуломов А., Нейматов Ҳ. Она тили таълими мазмуни. – Тошкент.: «Ўқитувчи», 1995 – 128 б.
21. Ғуломова А., Қобилова Б. Нутқ ўстириш машғулоти. – Тошкент.: «Ўқитувчи», 1995. – 160 б.
22. Содиқова М. Ҳозирги ўзбек тилида сифат. – Тошкент.: «Ўқитувчи», 1975. – 225 б.
23. Қўчқортоев И. Сўз маъноси ва унинг валентлиги. – Тошкент.: «Фан», 1977. – 168 б.
24. Ҳожиёв А. Ўзбек тили синонимларининг изоҳли луғати. – Тошкент.: «Ўқитувчи», 1974. – 308 б.
25. Ahmedova N. Boshlang‘ich sinflarda nutq o‘stirish usullari. // Ta‘lim jarayonida nutq madaniyatini takomillashtirish masalalari. «O‘zbek tili» doimiy anjumani beshinchi yig‘ilishi tezislari to‘plami (1999- yil 29-30 aprel) – Toshkent.: «Sharq», 1999. – 76-77b.
26. Zeboxon Ro‘zmetova, Shokir Tursun, Klaraxon Mavlonova, Sa‘dullo Quronov. Она тили ва о‘қиб саводхонлиги. 1-синф учун даслик.-Ташкент-2021. 61-б

TALABALARDA TA'LIM MADANIYATINI SHAKLLANTIRISHNING IJTIMOIIY-FALSAFIY MUAMMOLARI

Jumanazarova Asal

Sh.Rashidov nomidagi SamDU 4-bosqich talabasi

Ilmiy rahbar: **Tursunov Lochin Erkinovich**

Sh.Rashidov nomidagi SamDU dotsenti, PhD

<https://doi.org/10.5281/zenodo.8157112>

Annotatsiya: Ushbu maqolada talaba yoshlarda ta'lim madaniyatini shakllantirishning dolzarb masalalari, bu haqida mutaxassislarning bergan fikrlari keltirib o'tilgan. Ta'lim va madaniyatning uzviyligi, ularning hamohangligining ijtimoiy-falsafiy muammolari ilmiy jihatdan tahlil qilingan.

Kalit so'zlar: ta'lim madaniyati, madaniy aloqa, madaniy dinamika, ta'lim va tarbiya uyg'unligi.

SOCIO-PHILOSOPHICAL PROBLEMS OF FORMATION OF EDUCATIONAL CULTURE AMONG STUDENTS

Abstract: In this article, the current issues of the formation of educational culture among students and the opinions of experts are presented. The integration of education and culture, socio-philosophical problems of their harmony have been scientifically analyzed.

Keywords: educational culture, cultural communication, cultural dynamics, harmony of education and upbringing.

СОЦИАЛЬНО-ФИЛОСОФСКИЕ ПРОБЛЕМЫ ФОРМИРОВАНИЯ ОБРАЗОВАТЕЛЬНОЙ КУЛЬТУРЫ У СТУДЕНТОВ

Аннотация: В данной статье представлены актуальные вопросы формирования образовательной культуры у студентов и мнения специалистов. Научно проанализированы интеграция образования и культуры, социально-философские проблемы их гармонии.

Ключевые слова: образовательная культура, культурная коммуникация, культурная динамика, гармония обучения и воспитания.

KIRISH

Ta'limning juda muhim va shu bilan birga kam rivojlangan muammolaridan biri bu uning madaniyati hisoblanadi. Ta'lim va madaniyatning chambarchas bog'liq hodisalarining ichki aloqasi va o'zaro bog'liqligi bir qator holatlar bilan belgilanadi. Birinchidan, ta'lim nafaqat madaniyatning bir qismi, balki, eng muhim tarkibiy qismidir. Ikkinchidan, ta'lim har doim madaniyatni rivojlantirish uchun asos bo'lib kelgan, bu jarayonda birinchi navbatda uni rivojlantirish subyektlarining ta'lim darajasiga asoslanadi. Uchinchidan, ta'lim va madaniyat individual va guruh (jamoaviy) faoliyat turlari sifatida o'zaro chambarchas bog'liq va shu qadar yaqinki, ba'zida bu jarayonda qattiq belgilangan chiziqni topish qiyin. Ta'lim va madaniyatning muammoli aloqalariga kelsak, u ularni o'rganishga ilmiy yondashuvlarning birligi va umumiyligi bilan ajralib turadi. Bu shuni anglatadiki, ta'lim va madaniyatni ijtimoiy institut, ijtimoiy tizim, ijtimoiy jarayon, ijtimoiy-madaniy hodisa, faoliyat turi va qiymat sifatida ko'rib chiqish mumkin. Madaniyat ta'limda "yashaydi", deb hisoblash mumkin, bu uning qo'shma to'ldiruvchisi va yo'nalishning asosiy vektoridir. Qat'iy aytganda, bu madaniyatning nafaqat ta'limda, balki undan tashqaridagi boshqa ijtimoiy hodisalarda ham "mavjudligi" bilan bog'liq. Har qanday ijtimoiy obyekt, hodisa yoki jarayonning madaniy tarkibiy qismini aniqlash haqida savol tug'iladi. Aslida, biz ijtimoiy jihatdan madaniy, uning ko'p qirrali ko'rinishlarini aniqlash haqida gapiramiz.

Ularning ajralmas birligi ijtimoiy- madaniy dunyodir. Zamonaviy sotsiologiyaning asoschilaridan biri P. Sorokin bir vaqtning o'zida "ijtimoiy va madaniy dinamikada" masalaning ushbu tomoniga e'tibor qaratdi, u ijtimoiy va madaniy hodisalarni "bir xil bo'linmas ijtimoiy-madaniy dunyoning turli qismlari sifatida" izohlashga chaqirdi [1]. Bilamizki, ta'lim bilan birga yoshlarga tarbiya ham beriladi. Tarbiya berish orqali esa madaniyatli shaxsni shakllantiramiz. Madaniyat so'zi arabchadan olingan bo'lib "madinalik" ya'ni shaharlik degan ma'noni anglatadi. Demak, madaniyatli shaxs deganda olam haqida o'z tasavvurlariga ega, sotsializatsiya jarayonidan o'tgan, ya'ni ijtimoiylashgan, muomalaga layoqatli shaxsni tushunmiz.

TADQIQOT MATERIALLARI VA METODOLOGIYASI

Shu ma'noda, V. L. Benin haqli ravishda ta'kidlaydi: "pedagogik madaniyat hodisa sifatida pedagogika va madaniyatni uzviy bog'laydi va uning pedagogikaning ham, madaniyat tizimining ham mavqeini aniqlashni talab qiladi" [4]. Xuddi shu tarzda, ta'lim madaniyati tushunchasi madaniyat va tasvirni bog'laydi va madaniyat va ta'lim tizimlarida uning o'rnini aniqlash masalasini ko'tarishga imkon beradi, deb ta'kidlash mumkin. Yuqoridagi hukmlardan kelib chiqib, yuqoridagi kasbiy jamoalarning pedagogik madaniyatini ushbu ta'lim subyektlarining ta'lim madaniyatining namoyon bo'lishi deb hisoblash mumkin.

O'zbekistonda joriy etilgan uzluksiz ta'limning har bir bosqichi insonni har tomonlama rivojlanishiga yordam bera oladi. Bu bosqichlarda o'quvchida ta'lim madaniyati shakllanadi va yuksaladi. Masalan, kichik yoshdagi bolani bog'cha yoki maktabga berishda ota-ona tanlovi asosida bo'lsa ham keyinchalik bola o'zlari qiziqish va xohishlariga ko'ra tanlaydi. O'rta ta'lim shaxsni erkin fikrlay oladigan va ratsional tanlov qilish qobiliyatini shakllantirgan shaxsni tarbiyalab berishi kerak. Aynan talaba yoshlar kelajakda o'zini shu kasbda ko'ra olgan kasbni tanlashi va ta'limini ham shunga mos yo'nalishda tanlay olishi kerak.

